


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 24,5 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,8 % ga o'sdi.

***2018 yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)***




2017 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chilonzor tumani 116,4%, Yakkasaroy tumani 115,1%, Yashnobod tumani 110,2%, Sergeli tumani 108,9% da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Shayxontoxur tumani 90,5%, Olmazor tumani 100,4% hamda Bektemir tumanlarida 102% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1468,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 101,3 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5% ni tashkil etdi


Tumanlarning umumiyligi ovqatlanishdagi ulushi

(jamiga nisbatan foizda)



Umumiyligi ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiyligi hajmida eng katta ulush Yunusobod tumani 20,0 %, Sergeli 11,6%, Mirzo-Ulug'bek 11,2%, tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 0,9 %, Uchtepa tumani 5,1% va Yashnobod tumani 6,2 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 24,3 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor (16,9 foiz), Uchtepa (13,1 foiz), Shayxontoxur tumani (12,2 foiz), Bektemir (12,0 foiz), va Yunusobod (11,1 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayrim tumanlarda, jumladan, Olmazor tumani (4%), Mirzo-Ulug'bek tumani (5,8), Yakkasaroy tumani (5,9%)larida past ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 11,8 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (104,7 mln. so'm), hilonzor tumani (20,5 mln. so'm), Uchtepa (14,6 mln. so'm), Yakkasaroy tumani (14,7 mln. so'm), Mirobod tumani (13,0 mln. so'm) kuzatildi.




Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	11857,5	103,5
tumanlar:		
Uchtepa	14629,6	100,7
Bektemir	104746,1	99,1
Yunusobod	9978,6	106,5
Mirzo Ulug'bek	6350,5	104,1
Mirobod	13098,8	105,6
Shayxontoxur	10767,2	88,8
Olmazor	3312,2	98,6
Sergeli	10252,5	105,7
Yakkasaroy	14757,2	113,7
Yashnobod	8788,8	108,2
Chilonzor	20590,8	114,4


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(o'sish su'rati o'tgan yilga nisbatan,foizda)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 11857,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Chilanzor 14,4%, Yakkasaroy 13,7% va Yashnobod 8,2% tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Shayxontoxur tumani (88,8%), Olmazor tumani (98,6%) va Bektemir tumanida (99,1%) qayd etilgan.

Kichik korxona va Mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)




Kichik korxona va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirzo-Ulug'bek tumani (47,5%), Olmazor tumani (42,3%), Mirobod tumani (40,9%), Yunusobod tumani (29,6%). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Bektemir tumani (6%), Uchtepa tumani (11,2%), Chilonzor tumani (13,2%) hissasiga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, Yakkasaroy tumani (28,2%), Sergeli tumani (22,9%), Yashnobod tumani (20,9%) hamda Shayxontoxur tumanlari (20%) o'rtacha ko'rsatkichlarga ega.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 23747,5 mlrd. so‘mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar 2,6 % ga oshdi va 18727,6 mlrd. so‘mga yetib, umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,8 %ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)



Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p ulushga ega tumanlarga Bektemir tumani (99,6%), Uchtepa tumani (95,4%) va Shayxontoxur tumani (94,9%), eng past ulush esa Mirzo-Ulug’bek tumani (60,9%), Yakkasaroy tumanlariga (66,3%) to’g’ri kelgan.


Yil boshidan Toshkent shahar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 23747,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 %ni tashkil qildi .

2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 18727,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi

(jamiga nisbatan foizda)


■ Uchtepa	■ Bektemir	■ Yunusobod	■ Mirzo-Ulug'bek
■ Mirobod	■ Shayxontoxur	■ Olmazor	■ Sergeli
■ Yakkasaroy	■ Yashnobod	■ Chilonzor	



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Mirzo-Ulug'bek tumani 16,8 %, Yunusobod tumani 12,7 %, Yakkasaroy tumani 12,2 %, ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Bektemir tumani 1,3 %, Sergeli tumani 5,8 % jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

(jami ulgurji savdo aylanmasidan)



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yunusobod 13,6%, Mirzo-Ulug'bek 13,0 %, Chilonzor 12,0%, Olmazor tumani 10,9% hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,6% qayd etgan.

